


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4



TOSHKENT-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Искандарова Нодира Бахрамбековна
ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В
НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....7
2. Сапаева Хилола Бахромбековна
ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В
РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....14
3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi
BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARNING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA
PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....18
4. Pulat Fozilov
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE‘LLARINING IZOHLI
LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....23
5. Masharipov Jakhongir Axmedovich
MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY
BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....28

IQTISODIYOT

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....32
2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIVASI
TASHKIOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....38
3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi
XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....45

PEDAGOGIKA

1. Usanova Zulfiya Bozorovna
HOZIRGI INNOVATSION TA‘LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA‘LIM
MISOLIDA).....54

TARIX

1. Tuyev Fazliddin Erkinovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI:
2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....59
2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi
FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....64

3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI.....	68
4. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGY MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	73
5. Muborak Madrimovna Matyakubova XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI.....	78
6. Xayitov Shodmon Ahmadovich MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).....	83
7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna QADIMGY XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO'YI O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.....	89
8. Durdona Jamolova BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.....	93
9. Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O'RNI.....	98
10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI.....	103
11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.....	107
12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.....	111
13. O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI.....	115
14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI.....	120
15. Сулайманова Сохиба Баходировна СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАНГАЛАРИ.....	125
16. Bahridil Ergasheva O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV.....	129

Matyaqubova Nozima Maksatbayevna-

Urganch davlat universiteti, Tarix kafedrası o'qituvchisi

E-mail: matyaqubovtohirjon4717

**QADIMGI XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA
SARIQAMISHBO'YI O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY
TARAQQIYOT**

<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15362956>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada qadimgi Xorazm sug'orish tizimlari, xususan Oqchadaryo va Sariqamishbo'yi o'zanlari asosida dehqonchilikning rivojlanishi va madaniy taraqqiyot jarayonlari tahlil qilingan. Qadimgi kanallar – Dovdon, Chermoneyob, Ko'hna Uaz va boshqa sug'orish inshootlarining barpo etilishi, ularning ibtidoiy jamiyatlarning o'troqlashuvi va iqtisodiy faoliyatidagi o'rni ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, Kaltaminor, Tozabog'yob, Suvyorgan va Amirobod madaniyatlarining shakllanishi, bronza va temir davrlarida hududning sug'orish tizimi orqali agrar taraqqiyoti yoritilgan. S.P. Tolstovning ilmiy ishlari asosida qadimgi kanallar tarmoqlari va ularning qadimgi shaharlar bilan bog'liqligi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Xorazm, Oqchadaryo, Sariqamishbo'yi, sug'orish tizimi, Dovdon kanali, Chermoneyob, Kaltaminor madaniyati, Tozabog'yob, Suvyorgan, Amirobod, dehqonchilik, bronza davri, arxeologiya.

Matyakhubova Nozima Makhsatbayevna-

Lecturer of the Department of History of Urgench State University

E-mail: matyaqubovtohirjon4717

**AGRICULTURAL AND CULTURAL DEVELOPMENT BASED ON THE ANCIENT
IRRIGATION SYSTEMS OF KHOREZM, THE RIVERS OF THE AKCHADARYA AND
SARYKAMYSH**

ANNOTATION

This article analyzes the development of agriculture and the processes of cultural development based on the ancient irrigation systems of Khorezm, in particular, the channels of the Akchadarya and Sarykamysh rivers. The construction of ancient canals - Dovdon, Chermoneyob, Ko'hna Uaz, and other irrigation structures, their role in the settlement and economic activity of primitive societies, is shown. The formation of the Kaltaminor, Tazabagyab, Suyorgan, and Amirobod cultures, as well as the agrarian development of the region through irrigation systems in the Bronze and Iron Ages, are also highlighted. Based on the scientific works of S.P. Tolstov, the network of ancient canals and their connection with ancient cities were considered.

Keywords. Khorezm, Akchadarya, Sariqamish region, irrigation system, Dovdon canal, Chermoneyob, Kaltaminor culture, Tazabagyab, Suvyorgan, Amirobod, agriculture, Bronze Age, archaeology.

Матякубова Нозима Максатбаевна
Ургенчский государственный университет,
преподаватель кафедры истории

ДРЕВНИЕ ИРРИГАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ ХОРЕЗМА: ЗЕМЛЕДЕЛИЕ И КУЛЬТУРНОЕ РАЗВИТИЕ НА ОСНОВЕ РУСЕЛ АКЧАДАРЬИ И САРЫКАМЫШСКОГО РУСЛА

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются древние ирригационные системы Хорезма, в частности развитие земледелия и культурный прогресс на основе русел Акчадарьи и Сарыкамышского русла. Проанализировано строительство древних каналов — Давдан, Чермоняб, Кухна Уз и других оросительных сооружений, а также их роль в переходе к оседлости и экономической деятельности первобытных обществ. Освещено формирование культур Кальтаминар, Тазабагьяб, Сувйорган и Амирабад, а также аграрное развитие региона в бронзовом и железном веках через ирригационные системы. На основе научных трудов С.П. Толстова показаны разветвления древних каналов и их связь с древними городищами.

Ключевые слова. Хорезм, Окчадарья, Сарыкамышское русло, ирригационная система, канал Давдан, Чермоняб, культура Кальтаминар, Тазабагьяб, Сувйорган, Амирабад, земледелие, бронзовый век, археология.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Qadimgi Xorazm hududi Markaziy Osiyoning eng qadimiy sug'oriladigan madaniyat markazlaridan biri sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, Oqchadaryo va Sariqamishbo'yi o'zanlari asosida shakllangan sug'orish tizimlari bu hududda dehqonchilikning rivojlanishi va jamiyatning madaniy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Chorvador qabilalarning o'troqlashuvi, qadimgi kanallarning qurilishi va sug'orish inshootlarining barpo etilishi natijasida Xorazm vohasi agrar sivilizatsiyaga aylandi. Neolit davridan boshlab bronza va temir davrlarida Kaltaminor, Tozabog'yob, Suvyorgan va Amirobod kabi madaniyatlarning shakllanishi sug'orish tizimlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, hudud iqtisodiy va madaniy jihatdan jadal rivojlangan. Ushbu maqolada qadimgi sug'orish tizimlarining shakllanish jarayonlari, ularning agrar va madaniy taraqqiyotdagi o'rni ilmiy manbalar va arxeologik topilmalar asosida tahlil qilinadi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Qadimgi Xorazm sug'orish tizimlarini o'rganishda S.P. Tolstovning "Древний Хорезм" va "По древним дельтам" asarlari asosiy manbalardan hisoblanadi. Ushbu asarlarda Oqchadaryo va Sariqamishbo'yi o'zanlari bo'yicha qadimgi kanallar va madaniy yodgorliklarning joylashuvi batafsil o'rganilgan. B.V. Andrianovning qadimgi sug'orish tizimlariga oid tadqiqotlari esa, Xorazm vohasida sug'oriladigan dehqonchilikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda yoritadi. Shuningdek, B.I. Vaynbergning ekologik va etnogeografik tadqiqotlari, Y.F. G'ulomovning Xorazm sug'orilish tarixiga oid ishlari mazkur mavzuni yanada chuqurroq tahlil qilishga imkon beradi. A.V. Vinogradovning o'rta Osiyo ovchilari va baliqchilari hayotiga oid izlanishlari esa qadimgi aholining iqtisodiy faoliyatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu adabiyotlar qadimgi Xorazm sug'orish tizimlarining evolyutsiyasini ilmiy jihatdan asoslashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda qadimgi Xorazm sug'orish tizimlarini o'rganishda arxeologik, tarixiy, kartografik va paleoekologik yondashuvlarni birlashtirgan kompleks metodlar qo'llanildi. Qadimgi kanallar va sug'orish inshootlari arxeologik-uslubiy asosda tahlil qilindi, tarixiy manbalar va ilmiy ishlarga tayangan holda madaniyatlar evolyutsiyasi o'rganildi. Shuningdek, kartografik va geoinformatsion usullar yordamida hududiy bog'liqliklar aniqlashtirildi hamda paleoekologik va stratigrafik tahlillar orqali sug'orish tizimlariga tabiiy omillarning ta'siri baholandi. Qo'llanilgan metodlar uyg'unligi qadimgi sug'orish tizimlari negizida agrar va madaniy taraqqiyot jarayonlarini chuqur va ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Qadimgi Xorazm davlatining tashkil topishi va chorvador qabilalarning o'troqlashishi natijasida Sariqamishbo'yi o'zanidan kanallar chiqarilib, dehqonchilik vohalariga aylantirilgan. Dovdon kanalining chap qirg'og'idan Chermonyob kanali chiqarilgan. Mil.avv. IV asrning birinchi yarmida Dovdonning o'ng tomonida Ko'hna Uaz kanali qurilgan[3,C.27.]. Sariqamish o'zanidan chiqarilgan kanallar Amudaryo suvining toshishini hisobga olgan holda bunyod etilgan. Jumladan, Kuhna Uaz kanali to'g'riburchak ostida tarmoqlangan, keng bo'lib, undan kichik ariqlar deyarli chiqarilmagan. Ko'hna Daryo tomondan keladigan suv toshqinlaridan himoya qilish uchun dambalar bilan himoyalangan. Bunday dambalar suv toshqinidan aholini ham himoya qilishga xizmat qilgan[2,C.157.].

Dovdon kanalining eski o'zanini qayta tiklash asosida mil.avv. IV–III asrlarda Chermonyob kanali qurilgan. Chermonyob kanalining uzunligi 150 kilometr bo'lib, 3 ming gektar hududni egallagan. Chermonyob kanali hududlarida Ko'zaliqir, Qangaqala, Qandumqal'a, Ko'xna Uaz, Qal'aliqir 2, Shohsanam, Qo'narliqal'a, Zmuxshir (Zamaxshar), Govurqala qal'alari bunyod etilgan[5,B.86.]. Mil.avv. II–I asrlarda Janubiy Dovdon irmog'i qurib qolishi sababli, uning o'rnida yirik Chermonyob kanali qurilgan. Irmoqning qurishi bu yerdagi aholining turmush tarziga jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

Mil. avv. II–I ming yilliklarda Amudaryoning ikkita asosiy o'zanlari Sariqamish va Oqchadaryo loyiqa, cho'kindilar bilan to'lib qolishi sababli Amudaryo suvlari Orolbo'yi o'zaniga quyila boshlagan[1,C.147.]. Orolbo'yi o'zani Nukus shahridan keyin Oqdaryo, Erkindaryo, Ko'xnadaryo, Toldiqdaryo, Qozoqdaryo kabi tarmoqlarga ajralgan. Mil. avv. I ming yillikning ikkinchi yarmida Amudaryo suvining asosiy qismi Orol dengiziga quyilgan[4,C.217.].

Quyi Amudaryo hududlari eng qadimgi davrlarda chorvador aholining yashashi uchun qulay sharoiti mavjud bo'lgan. Daryo bo'ylari qamishlarga boy bo'lib, to'qay o'rmonlari ko'p bo'lgan. Daryo irmoqlari va ko'llar yetarli bo'lgan.

Paleolit davrining o'rta va so'nggi bosqichlaridan boshlab Ustyurt platosining Borsa kelmas, Ustyut chinki, Sulton Uvays tog'i hududlari insonlar tomonidan o'zlashtirilgan. Mezolit va neolit davrlariga oid Ustyurt va unga chegaradosh hududlardan yuzdan ortiq ibtidoiy odamlarning manzilgohlari aniqlangan. Bugungi kunda sahroga aylangan bu hududlarda mezolit va neolit davrlarda suv bo'lganligi va iqlim ham bugungi kundan ancha namgarchilik bo'lganligini ko'rsatadi.

Neolit davrida quyi Amudaryo bo'ylarining ancha keng qismi insonlar tomonidan o'zlashtirilgan. Ibtidoiy odamlarning manzilgohlari Oqchadaryo havzasi, Qizilqum sahrosi va quyi Zarafshon havzalaridan Kaltaminor madaniyati qabilalariga oid manzilgohlar topilgan[7,C.76.]. Kaltaminor madaniyati mil. avv. VI ming yillikdan mil.avv. II ming yillikning boshlariga mavjud bo'lgan.

Bronza davrida, ya'ni miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida Oqchadaryo o'zani bo'ylari Tozabog'yob madaniyatini yaratgan aholi tomonidan o'zlashtirilgan. Tadqiqotchilar bu davrda aholi Oqchadaryo o'zani bo'ylarida zich yashagan degan xulosani berishgan. Tozabog'yob madaniyatini yaratgan aholi janubiy Orolbo'yiga shimol tomondan kirib kelganlar[8,B.59.].

Shu davrda bu hududda mahalliy ildizga ega bo'lgan kaltaminor madaniyatining vorisi Suvyorgan madaniyati aholisi ham iste'qomat qilgan. Suvyorgan va Tozabog'yob madaniyatlari aholisi asosan, janubiy Oqchadaryo hududida iste'qomat qilishgan.

Miloddan avv. II ming yillikning ikkinchi yarmiga kelib, suvyorgan madaniyati aholisi bilan tozabog'yob madaniyatini yaratgan aholi aralashib, assimiliyatsiya bo'lib ketadilar. So'nggi bronza va ilk temir dariga kelib, ya'ni mil.avv. X–VIII asrlarda Oqchadaryo o'zanida bo'ylarida Amirobod madaniyati shakllanadi. Bu madaniyat izlari dastlab Oqchadaryo o'zani bo'yidagi Amirobod kanali atroflaridan topilgan.

XULOSA

S.P.Tolstov "Qadimgi Xorazm" asarida Oqchadaryo o'zanidan chiqqan Kaltaminor, Tozabog'yob, Suvyorgan va Amirobod kanallarining yo'nalishlarini ko'rsatib bergan[6,C.45-47.]. Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududa joylashgan

Paxta -Arna (ilgarigi nomi Sho'raxon) kanali faoliyat olib borayotgan Kaltaminor, Tozabog'yob va Amirobod kanallariga ajralgan. Bu kanallar qadimgi davr sug'orish tizimlarini kengaygan holda davom qildirgan. Qadimgi Kaltaminor kanali Eresqal'a yodgorligi yonidan Anqaqal'a va Bozorqal'a yodgorliklari yonidan o'tgan. Uning bir tarmog'i Jonbosqal'a yodgorligi hududlarini ham sug'organ. Tozabog'yob kanali shimoli-sharq tomon harakatlanib, Katta Guldursin va kichik Guldursin yodgorliklari oralig'idan o'tib, Qumbosganqal'a, Burgutqal'a, Qirqqizqal'a yodgorliklari hududidan o'tgan. G'arb tomonga ko'p tarmoqlangan bo'lib, u shimolda Norinjon shahrigacha, Buranqal'a, Qumqal'a, Yakkaparon hududlaridan o'tib, kichik Qirqqiz qal'asi yonigacha borgan. Bu kanalning tarmoqlari Qo'shqal'a va Ayoqzal'a hududlarigacha borgan.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. – С. 147.
2. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. – С. 157.
3. Вайнберг Б.И. Экология Приаралья в древности и средневековье. // ЭО. № 1. 1997. – С. 27.
4. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана. – С. 217.
5. Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Б. 86.
6. Толстов С.П. Древний Хорезм. – С. 45-47
7. Толстов С.П. Древний Хорезм. – С. 62; Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья. /Тр. ХАЭЭ. XIII. -М.:1981. – С.176.
8. Толстов С.П. По древним дельтам. – Б. 59.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000